



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	



INNOVATSION YONDOSHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY JIHATLARI

Mamadiyorov Jamol

Oriental universiteti "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi"
kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Muallif muammoli ta'lim, didaktik o'yinlar, metakognitiv strategiyalar va zamonaviy baholash vositalari orqali o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish yo'llarini tahlil qilgan. O'qituvchi kompetensiyasi va o'quv muhitining roli keng yoritilib, fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vositalar misollar bilan keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoga ijodiy yondashuvi va tahliliy salohiyatini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, fikrlash qobiliyati, innovatsion yondashuv, muammoli ta'lim, didaktik o'yinlar, metakognitsiya, formativ baholash, analitik tafakkur, pedagogik texnologiya, o'qituvchi kompetensiyasi, ta'lim muhiti.

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of developing thinking skills in primary school students through innovative pedagogical approaches. The author analyzes the effectiveness of problem-based learning, didactic games, metacognitive strategies, and modern assessment tools in fostering students' cognitive development. The study emphasizes the role of teacher competency and learning environment in activating students' analytical and creative thinking. Experimental results confirm that an integrated approach significantly improves learners' ability to think independently, solve problems creatively, and formulate well-reasoned conclusions.

Key words: primary education, thinking skills, innovative approach, problem-based learning, didactic games, metacognition, formative assessment, analytical thinking, pedagogical technology, teacher competence, learning environment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития мыслительных способностей учащихся начальных классов с использованием инновационных педагогических подходов. Автор анализирует эффективность проблемного обучения, дидактических игр, метакогнитивных стратегий и современных методов оценивания в формировании когнитивных навыков учеников. Особое внимание уделяется роли профессиональной компетентности учителя и образовательной среды. Результаты эксперимента подтверждают, что комплексный подход способствует развитию самостоятельного, аналитического и креативного мышления у младших школьников.

Ключевые слова: начальное образование, мыслительные способности, инновационный подход, проблемное обучение, дидактические игры, метакогнициция, формативное оценивание, аналитическое мышление, педагогические технологии, компетентность учителя, образовательная среда.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchilarning tafakkur faoliyatini asosli yo'lga qo'yish uchun eng muhim poydevor hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda bolalar mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, solishtirish va sabab-oqibat munosabatlarini anglash kabi kognitiv faoliyatlarni o'zlashtira boshlaydi. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarni faol ishtirokga undab, ularning fikrlash jarayonini chuqur shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat bilimlarni egallashga, balki o'quvchining intellektual va ijodiy rivojiga ham xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash faoliyatini shakllantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish. Ilmiy-pedagogik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlashini faollashtiradi va ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Muammoli yondashuvda o'quvchi tayyor bilimni emas, balki izlanish, mulohaza va tahlil orqali bilimni o'zlashtiradi. Masalan, "Nima uchun daraxtlar barg to'kadi?", "Agar yomg'ir uch hafta yog'masa, bu holat tabiatga qanday ta'sir qiladi?" kabi savollar o'quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish, taxmin qilish, sabab-oqibatni aniqlash kabi tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Ushbu uslub orqali bola nafaqat mavzuni tushunadi, balki o'z atrofidagi voqealarga ham ongli munosabat bildiradi ^[1].

Tajriba natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, muammoli ta'lim asosida tashkil etilgan darslar natijasida o'quvchilarning:

- 84% o'z fikrlarini erkin bayon etishga o'rgangan;
- 76% dars jarayonida faol ishtirok eta boshlagan;
- 69% esa boshqa o'quvchilarning fikrlarini tahlil qilish va tanqidiy baholash ko'nikmasini rivojlantirgan.

Demak, muammoli yondashuv nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki tafakkurni ham shakllantiradi. Shuningdek, bu yondashuv bolaning shaxsiy intellektual faolligini oshirib, uni yangi bilimlar izlashga undaydi. Shu tariqa, dars mazmuni bolaga tushunarli va hayotga yaqin bo'lgan real voqealar bilan boyitiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Didaktik o'yinlar orqali fikrlashni rivojlantirish. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayonini jonlantiruvchi va samarali vositalardan biri hisoblanadi. O'yinlar o'quvchilarni faol fikrlashga, izlanishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga undaydi. Ayniqsa, o'yinga asoslangan topshiriqlar bolaning o'z fikrini ifodalash, izchil va asosli xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, "Sirli quti" o'yini orqali o'quvchiga uchta raqamdan iborat to'plam beriladi va ularning yig'indisi hamda ayirmasi aytiladi. Talaba ushbu ma'lumotlarga asoslanib yashiringan raqamlarni aniqlashi kerak bo'ladi. Bu orqali bola quyidagi fikrlash elementlarini rivojlantiradi: tahlil qilish; ma'lumotlarni solishtirish; muqobil echimlarni izlash; mantiqiy xulosa chiqarish. Shuningdek, ona tili, tabiatshunoslik yoki ekologiya kabi fanlarda "To'g'ri top", "Nimani unutdingiz?", "Ketma-ketlikni aniqlang" kabi o'yin topshiriqlari orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, sabab-oqibatni tushunish, xotirani faollashtirish va nutqni rivojlantirishga erishiladi. O'yinlar orqali ta'lim jarayoni o'quvchilar uchun nafaqat qiziqarli, balki samarali o'zlashtirish vositasiga aylanadi.

Tajriba natijalari quyidagicha bo'lgan: 78% o'quvchi dars jarayonidan zavqlangan; 82% savollarga ijodiy yondashishga harakat qilgan; 70% dan ortiq o'quvchi mustaqil savollar tuzishni o'zlashtirgan. Bu ko'rsatkichlar didaktik o'yinlar nafaqat darsni qiziqarli, balki intellektual faoliyatga boy qilishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'yinlar yordamida o'quvchilar o'zaro muloqot qilishni, jamoada ishlashni, o'z fikrini asoslashni o'rganadilar ^[5].

Innovatsion yondashuvlar va kompleks integratsiya. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyati – ularning faoliyatga yo'naltirilganligidir. Bunda o'qituvchi bilimni tayyor holatda bermaydi, balki o'quvchini izlanishga, muhokamaga, tajriba qilishga undaydi. Shunday qilib, "Bilim emas – fikr bildiring!" degan yondashuv amaliyotga tadbiiq etiladi. Fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan asosiy prinsiplardan ba'zilari:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: har bir o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etadi va u qadrlanadi;
- faollik va ishtirok: o'quvchi bilim oluvchidan ko'ra ishtirokchiga aylanadi;
- ko'rgazmali va raqamli vositalar: multimedia texnologiyalari orqali mavzu chuqur yoritiladi;
- interfaollik: "savol-javob", "aql charxi", "klaster" kabi metodlar orqali fikrlash jarayoni kuchaytiriladi ^[4].

Zamonaviy texnologiyalar – interfaol doska, elektron resurslar, vizual grafikalar – o'quvchilarning diqqatini jamlash, mavzuga chuqur kirib borish va ayniqsa, analitik fikrlashni shakllantirishda sezilarli darajada yordam beradi. Didaktik o'yinlar bilan muammoli ta'lim usulining uyg'unligi esa yanada kuchli natijalarni ta'minlaydi. Bunda o'quvchi bilimni faqat eslab qolmaydi, balki uni amaliyotda qo'llaydi, shuningdek, yangi vaziyatlarga moslashadi va mustaqil qaror chiqarishni o'rganadi. Interaktiv usullar bilan to'ldirilgan darslar bolalarning fikr almashish, muhokama yuritish, turli yechimlar ustida bahslashish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, kompleks yondashuvlar orqali har bir mavzuni fanlararo bog'liqlikda yoritish mumkin bo'ladi. Masalan, matematika darsida ekologik muammolar haqida misollar berish, ona tili darsida tabiatni asrash haqida insho yozdirish mumkin.



Fikrlashni rivojlantirishda metakognitiv yondashuvlar. So'nggi yillarda ta'limda metakognitiv yondashuvlar – ya'ni o'quvchining o'z fikrlash faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z fikrlash jarayonlarini anglashni o'rganishi, savollar berish, tekshirish va o'z fikrini qayta ko'rib chiqish orqali tafakkurini chuqurlashtira oladi. Metakognitiv strategiyalar o'quvchining:

- bilim olishdagi faolligini oshiradi;
- dars mazmunini chuqurroq anglashiga yordam beradi;
- o'z bilim va fikrlarining to'g'riligini baholashga o'rgatadi;
- xatolarni anglab, ularni tuzatishga yo'naltiradi.

Masalan, "Men nima bilaman?", "Men nimani bilishni istayman?", "Men nimani bilib oldim?" kabi savollar asosida tashkil etilgan darslar metakognitiv ongini faollashtiradi. Bu yondashuv o'quvchining o'z-o'zini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va darsni passiv tinglash emas, balki faol idrok qilishga olib keladi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrlashni rivojlantiruvchi baholash vositalari. O'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda baholash vositalarining roli nihoyatda muhim. An'anaviy test va reytingdan farqli o'laroq, zamonaviy baholash turlari (formativ baholash, o'z-o'zini baholash, fikr kartalari, reflektiv daftarchalar) orqali bola o'zining fikrlash faoliyatini kuzatish, mustaqil tahlil qilish va baholashga o'rganadi. Baholashni fikrlashga yo'naltirish quyidagilarga xizmat qiladi: bola o'z bilim darajasini anglaydi; xatolardan saboq chiqarishni o'rganadi; o'z fikriga nisbatan tanqidiy yondashadi; fikrni asoslash, dalillash va mustaqil bayon etishga intiladi. Misol uchun, "Fikrlar panjarasi", "Nimani bilaman – nimani o'rgandim?" kabi shakllar o'quvchini dars davomida va undan keyin ham tafakkur qilishga undaydi. Shu orqali o'quvchi doimiy ravishda o'z fikrlarini shakllantirish va tahlil qilishga odatlanadi [3].

O'qituvchining metodik kompetensiyasi fikrlashni rivojlantirishda asosiy omil. Innovatsion yondashuvlar samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik mahorati, metodik bilimlari va ijodiy yondashuviga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat fanni yaxshi bilishi, balki har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olib darsni rejalashtirishi zarur.

Samarali o'qituvchi: har bir o'quvchi uchun shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini yaratadi; qiziqarli, fikrlashga undovchi topshiriqlar tuzadi; "noto'g'ri javob"ni jazolamaydi, aksincha, uni tahlil qilish orqali to'g'ri yo'lni topishga yo'naltiradi; har bir o'quvchining mustaqil fikrini hurmat qiladi.

O'qituvchining doimiy metodik o'sishi – seminarlar, innovatsion treninglar, zamonaviy dars ishlanmalari ustida ishlashi – uning darslarida fikrlashga oid topshiriqlar ulushini oshiradi. Bu esa butun sinfning fikrlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi [7].

Muhit va vositalarning roli. Fikrlashni rivojlantirishda ta'lim muhiti, darsning tashkiliy shakllari, foydalaniладigan materiallar va vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Interfaol doska, ko'rgazmali materiallar, interaktiv platformalar orqali taqdim etilgan topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi.

Masalan, quyidagi vositalar fikrlashni faollashtirishda yordam beradi:

- "Mind map" (aqliy xarita) – mavzuni tarmoqlab tushuntirish, sabab-oqibat zanjirlarini ko'rsatish;
- "Tangram" yoki mantiqiy konstruktorlar – figuralar orqali tafakkurni fazoviy va amaliy jihatdan rivojlantirish;
- "Raqamli klasterlar" – o'quvchilarning mantiqiy guruhlash, toifalash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Shuningdek, sinfdagi psixologik muhit – ishonch, xatolarga nisbatan bag'rikenglik, fikr erkinligi – bolalarning o'z fikrini ochiq ifodalashi, savollar berish va munozaralarda faol bo'lishi uchun qulay sharoit yaratadi [6].

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini shakllantirish uchun muammoli ta'lim, didaktik o'yinlar va innovatsion metodlarning uyg'un holda qo'llanilishi yuqori natijalarni beradi. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilar:

- mustaqil fikrlashni o'zlashtiradi;
- yangi vaziyatlarda moslashishni o'rganadi;
- o'z fikrini asosli ifodalashga odatlanadi;
- muqobil yechimlar ustida ishlashni o'zlashtiradi.



Eng muhimi, bu jarayonda o'qituvchi endilikda bilim manbai emas, balki o'quvchining fikriga yo'l ko'rsatuvchi, unga yo'ldosh va hamkor sifatida qatnashadi. Bunday pedagogik munosabat esa o'quvchida nafaqat bilim, balki ishonch, faollik va ijodkorlikni ham shakllantiradi.

Natijada, fikrlashga asoslangan ta'lim boshlang'ich bosqichda nafaqat kognitiv faoliyatni, balki keyingi ta'lim bosqichlarida ham muvaffaqiyat kalitiga aylanadigan mustaqil, izlanishga moyil, erkin fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishi, ularni dars jarayoniga to'g'ri qo'llay olishi, innovatsiyalarga ochiq bo'lishi lozim. Fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar bilan boyitilgan ta'lim esa zamonaviy jamiyatga mos shaxsni tarbiyalashning eng samarali yo'llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедова, Н. Қ. (2022). Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Hasanov, M. R. (2021). Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish. – O'zbekiston pedagogik axborotlar jurnali, №4, 17–23-bet.
3. Shodmonova, S. H. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish metodlari. – Ta'lim va rivojlanish ilmiy jurnali, №2, 12–19-bet.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Jonassen, D. H. (2000). Designing Constructivist Learning Environments. – Educational Technology Research and Development, 48(3), 21–30.
6. Nurmatova, D. M. (2023). Zamonaviy darsda muammoli yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari. – Ilmiy izlanishlar jurnali, №1, 25–31-bet.
7. OECD (2019). The OECD Learning Compass 2030: A Framework for 21st Century Competencies. – Paris: OECD Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.